



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

“BAHOLANGAN MAJBURIYATLAR, SHARTLI MAJBURIYATLAR VA SHARTLI AKTIVLAR” (BHXS 37) STANDARTNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rajabova N.U

TMI magistranti

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirish sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda hisob obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida, to‘g‘ri va to‘liq shakllantirish masalalari muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda o‘rinli va haqqoniy ma’lumotlarni shakllantirish, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatini tahlil qilish hamda baholashda baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur baholashda baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar hisobini to‘g‘ri tashkil etish, tan olish va baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki, milliy hisob va hisobot tizimimizga baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar tushunchasi yangi kirib kelayotgan iqtisodiy kategoriyalardan hisoblanib, ular milliy hisob va hisobot tizimimizda faoliyat yurituvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotida aks ettirilmasdan kelinmoqda. Xalqaro amaliyotda esa baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar tushunchalari keng qo‘llaniladi va ularni hisobga olish va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish 37-sonli “Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) bilan tartibga solinadi. Ushbu standartning ahamiyatliligi va o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Baholangan majburiyatlar, shartli majburiylarni ro‘yxatga olish kompaniyalar, davlat va nodavlat tashkilotlari keljakda har qanday favqulodda vaziyatga tayyor bo‘lishini ta’minlaydi;
- Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlarni qayd etish kompaniyaning moliyaviy holatini to‘g‘ri baholashga yordam beradi;
- Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar hisobini tashkil qilish kompaniyaga o‘z budgetini yaxshiroq rejalashtirishiga yordam beradi;
- Kredit kompaniyalari xo‘jalik yurituvchi subyektlarga kredit berishda, baholangan va shartli majburiylarning miqdori va xususiyatini hisobga oladi;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- Investitsiyalar qo‘yishdan oldin investorlar kelajakda kompaniya to‘lashi mumkin bo‘lgan ehtimoliy majburiyatlarni bilishni xohlashlari mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlarida shartli majburiyat tushunchasi yo‘q. Shartli majburiyat asosan xalqaro amaliyotda qo‘llanilib, buxgalteriya hisobining xalqaro standartining 37-son “Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” nomli standartida quyidagicha ta’rif berilgan:

Shartli majburiyat - bu:

- (a) bo‘lib o‘tgan hodisalardan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan majburiyat. Uning mavjudligi faqatgina korxonaning to‘liq nazorati ostida bo‘lmagan kelgusi noaniq hodisalarning biri yoki bir nechta sodir bo‘lishi yoki sodir bo‘lmashigi natijasida tasdiqlanadi; yoki
- (b) u hozirgi paytdagi majburiyat bo‘lib, bo‘lib o‘tgan hodisalardan yuzaga keladi, ammo tan olinmaydi, chunki:
 - (i) iqtisodiy nafni o‘zida mujassamlashtiradigan resurlarning majburiyatni so‘ndirish uchun chiqib ketishi talab etilishining ehtimoli yo‘q; yoki
 - (ii) ushbu majburiyatning summasini yetarli ishonchlilik bilan baholash mumkin bo‘lmaydi.

Shartli majburiyatlar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hodisa va ushbu hodisa o‘rtacha aniqlik darajasi bilan baholansagina, buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Shartli majburiyatlar dastlab kutilmagan tarzda rivojlanishi mumkin. Shu bois, ular iqtisodiy nafni mujassamlashtirgan resurslar chiqib ketishi ehtimoli paydo bo‘lganini aniqlash maqsadida muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqiladi. Agar oldin shartli majburiyat sifatida tasniflangan majburiyat bo‘yicha iqtisodiy nafni mujassamlashtirgan resurslar chiqib ketishi talab etilishi ehtimoli paydo bo‘lsa, ehtimollikda o‘zgarish sodir bo‘lgan davrda moliyaviy hisobotlarda baholangan majburiyat tan olinadi. Shartli majburiyatga keng tarqalgan misollarga: mahsulot uchun berilgan kafolat, qarzlar bo‘yicha kafolatlar, tugatilgan zararlar, to‘lanmagan da‘volar kiradi. Xalqaro amaliyotda ko‘p uchraydigan shartli majburiyatga misol keltiradigan bo‘lsak: “A” korxona bilan hamkorlikda ishlovchi mol yetkazib beruvchi “B” korxona bankdan kredit ololmaydi. “A” korxona mol yetkazib beruvchining bank krediti qaytarilishiga kafolat berib kafl sifatida bo‘ladi. “A” korxonaning kafolati natijasida bank mol yetkazib beruvchi “B” korxonaga kredit beradi. Natijada “A” korxona shartli majburiyatga ega bo‘ladi. Agar mol yetkazib



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

beruvchi "B" korxona bank kreditini to'lasa shartli majburiyat so'nadi, agar kreditni to'lamasa haqiqiy majburiyat sifatida aks ettiriladi.

Shartli majburiyat xo'jalik yurituvchi subyektning aktivlarini kamaytirishi va subyektning kelgusi sof rentabelligi va pul oqimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi sababli, shartli majburiyat haqidagi ma'lumotlar investorning qaroriga ta'sir qilishi mumkin. Shartli majburiyatlar Moliyaviy hisobotining xalqaro standartlari talablari asosida buxgalteriya hisobining tamoyillari bilan bog'langan holda aks ettirilishga majbur. Ushbu muhim uchta tamoyillar quyidagilar:

To'liq oshkor qilish tamoyiliga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ko'rsatkichlari va asoslari bilan bog'liq bo'lgan barcha muhim, tegishli faktlar moliyaviy hisobotda oshkor qilinishi kerak. Shartli majburiyat korxonaning aktivlari va sof rentabelligini pasayishiga tahdid soladi va shuning uchun korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, bunday holatlar korxonaning moliyaviy hisobotida to'liq oshkor qilish tamoyiliga muvofiq oshkor qilinishi kerak.

Moddiylik tamoyili barcha muhim moliyaviy ma'lumotlar va masalalar moliyaviy hisobotda ko'rsatilishi kerakligini bildiradi. Agar obyektni bilish korxonaning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilarning iqtisodiy qarorini o'zgartirishi mumkin bo'lsa, obyekt muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, "material" atamasi asosan "muhim" bilan sinonimdir. Shartli majburiyat korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va buni bilish kompaniyaning moliyaviy hisobotining turli foydalanuvchilarining qaror qabul qilishiga ta'sir qilishi mumkin.

Ehtiyyotkorlik tamoyili - bu buxgalteriya hisobining asosiy konsepsiysi bo'lib, u aktivlar va daromadlar oshib ketmasligiga, majburiyatlar va xarajatlar hisobi to'g'ri yuritilishiga ishonch hosil qiladi. Shartli majburiyatlarining natijasi aniq bo'lishi mumkin emasligi sababli, shartli hodisaning yuzaga kelish ehtimoli baholanadi va agar u 50% dan katta bo'lsa, u holda majburiyat va tegishli xarajatlar qayd etiladi.

Xulosa qilib, shuni aytishimiz mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati davomida majburiyatlar tushunchasi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida qo'llanilgan majburiyatlar tushunchasi bilan taqqoslanganda, bir qancha farqlar aniqlandi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida majburiyatlar hisobini tashkil etishda buxgalteriya hisobining to'liq oshkor qilish, moddiylik, ehtiyyotkorlik tamoyillari asosida moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi. Buxgalteriya hisobi milliy tizimlarida xam shunday tamoyillar asosida majburiyatlar hisobini yuritishni,

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

buxgalteriya hisobining xalqaro standartining 37-son “Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” nomli standartini “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun doirasida buxgalteriya hisobi milliy tizimiga joriy etishni tavsiya etamiz. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mos ravishda hisob yuritsa, xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minlanadi va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlari kengaytiriladi.